



UDK: 159.9 (316.6)

Shirinboy O'SAROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi
E-mail.: shirinboyphd@gmail.com

TPU dotsenti, PhD Sh.Kimsanbayeva taqrizi asosida

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA KREATIV PEDAGOGIKANING IJTIMOIY-FALSAFIY ASPEKTLARI

Annotatsiya

Zamonaviy ta'lim tizimi kundan kunga shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Uning yutuqlaridan ortda qolgan jamiyatlar, o'z navbatida rivojlanishdan ham chetda qolib, aholi farovonligini ta'minlay olmay qolishi mumkin. Maqolada ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlashda pedagoglardan talab etiladigan kreativlik jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, tahdid, kreativlik, ogohlik, pedagog, pedagogik ishlanmalar.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ КРЕАТИВНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Аннотация

Современная система образования стремительно развивается с каждым днем. Общества, отстающие от ее достижений, рискуют остаться позади в развитии и не смогут обеспечить благосостояние населения. В статье анализируются аспекты креативности, требуемые от педагогов для обеспечения взаимосвязанности обучения и воспитания.

Ключевые слова: образование, воспитание, духовность, угроза, креативность, бдительность, педагог, педагогические разработки.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF CREATIVE PEDAGOGY IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL AND UPBRINGING PROCESS

Annotation

The modern education system is rapidly evolving day by day. Societies that fall behind its advancements risk lagging in development and may fail to ensure the well-being of their population. The article analyzes the aspects of creativity required from educators to ensure the integration of education and upbringing.

Key words: education, upbringing, spirituality, threat, creativity, vigilance, educator, pedagogical innovations.

Kirish. Har qanday ta'lim tizimida pedagoglar jamiyatning kelajagini shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida qaraladi. Pedagoglar nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularning ma'naviy rivojlanishini ham ta'minlashi lozim. Bu jarayonda kreativlik va ma'naviyat o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi elementlar sifatida namoyon bo'ladi. Kreativ pedagog ta'lim jarayonida faol ijodkorlikni shakllantirish bilan birga, ma'naviy qadriyatlarni ham bolalarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi globallashuv va texnologik rivojlanish jarayonida ta'lim tizimi yangi talablar va o'zgarishlarga duch kelmoqda. Pedagogika sohasida kreativ yondashuvlar ahamiyati tobora ortib bormoqda. Kreativ pedagogika nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki yoshlarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni murakkab muammolarni hal etishga yo'naltirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan, kreativ pedagog ta'lim va tarbiya jarayonida markaziy figura sifatida muhim o'rin tutadi. Uning roli nafaqat ta'lim sifatiga, balki o'quvchilarning ma'naviy va shaxsiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kreativ pedagoglar innovatsion o'qitish metodlarini qo'llab, o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, ularga ijodiy muammolarni hal qilishda yordam berishda muhim bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi. Bunday pedagoglar faqatgina o'quv dasturlarini bajarish bilan cheklanmay, balki har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni har tomonlama rivojlantirishga intilgan ta'lim

jarayonini tashkil qiladi. Shuning uchun, kreativ pedagogika hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida muhim vazifalarni bajaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolada keltirilgan adabiyotlar ta'lim va tarbiya jarayonidagi kreativlik va ma'naviyatni shakllantirish masalalariga bag'ishlangan. P.I.Chijikning fikriga ko'ra, "ma'naviy tahdid" bu jamiyatning ma'naviy asoslariga zarar yetkazuvchi ichki va tashqi omillar majmuasi bo'lib, ular ijtimoiy munosabatlarning muvozanatini buzishga qaratilgan [12]. Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatida ta'lim va ma'naviy tarbiyaning ahamiyati alohida qayd etilgan bo'lib, u yosh avlodni ma'naviy yuksaltirish uchun asosiy yo'nalishlardan biri sifatida tavsiya etilgan [1].

R.Sternbergning ijodiy intellekt nazariyasiga ko'ra, ijodiy yondashuvni rivojlantirish orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari oshiriladi [3]. Ushbu nazariya kreativ pedagogikada ham qo'llanilishi mumkin, chunki ijodkorlik o'quvchilarning ijodiy fikrlashini qo'llab-quvvatlaydi.

Axmedova Z.A. "Sovremennoye pedagogicheskoye obrazovaniye" jurnalining tadqiqotlarida kreativ pedagogikaning zamonaviy ta'lim tizimidagi rolini o'rganib chiqdi va kreativlikni rivojlantirish uchun maxsus metodlar zarurligini ta'kidladi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tadqiqot metodlari sifatida tahlil va qiyosiy usullardan foydalanildi. Birlamchi va ikkalamchi manbalar, shu jumladan ilmiy maqolalar, qonun hujjatlari va ma'naviy tahlillar asosida

kreativlik va ma'naviyatni shakllantirish usullari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida pedagoglar faoliyatining ijodiy jihatlari tahlil qilinib, ularning ma'naviy tarbiyadagi o'rni va ahamiyati o'rganildi.

Kreativ pedagoglardan o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasida innovatsion usullardan foydalanish, ijodiy mashg'ulotlarni tashkil qilish va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda samarali vositalar ishlab chiqish kutilmoqda. Ijodiy topshiriqlar, loyihalar va musobaqalar orqali o'quvchilarning ijodiy va axloqiy rivojlanishiga e'tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar. Kreativlik – yangi g'oyalarni yaratish va ularni amalga oshirish qobiliyati bo'lib, pedagoglar uchun faqat ta'limda emas, balki tarbiyada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ pedagog o'quvchilarda faqat nazariy bilimlarni emas, balki shaxsiy rivojlanishga yordam beradigan ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Bu jarayonda ma'naviyat, ya'ni ma'naviy qadriyatlar va insonparvarlik tushunchalari, tarbiya jarayonining markaziy nuqtasiga aylanadi.

Ma'naviyat – bu shaxsning ichki dunyosi, axloqiy qoidalari va ijtimoiy qadriyatlar to'plamidir. Kreativ pedagog bolalarda ma'naviyatni tarbiyalash orqali ularni nafaqat bilimli, balki ma'rifatli, axloqiy jihatdan yetuk shaxslar qilib tarbiyalaydi. Ma'naviyat va kreativlik birgalikda bolalarning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi.

Kreativ pedagog — bu zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan, o'quv jarayonini yangicha yondashuvlar orqali tashkil etadigan shaxsdir. U an'anaviy metodlar bilan cheklanmasdan, innovatsion vositalar va ijodiy yechimlar orqali ta'limning sifatini oshirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Bunday pedagoglar yoshlarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning qobiliyatlarini to'liq namoyon qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish orqali ularni zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislar qilib yetishtirishni maqsad qiladilar.

Kreativ pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish va ularning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu jarayonda kreativ pedagog o'quvchilar bilan ijodiy muloqotda bo'lib, ularni faol ishlashga, yangi g'oyalarni yaratishga rag'batlantiradi. Bunda o'qituvchi, ta'lim faoliyatida kreativ usullardan foydalanish bilan birga, o'quvchilarga o'z-o'zini anglash, o'z salohiyatini ochish va muammolarga ijodiy yondashish imkonini beradi [13].

Kreativ pedagog bo'lish uchun nafaqat pedagogik bilimlar, balki keng dunyoqarash va ijodiy qobiliyatlar ham zarur. Bunday pedagoglar doimiy ravishda yangi o'qitish usullarini qidirishda va ularni o'z faoliyatiga joriy etishda faol bo'ladilar.

Ta'lim jarayoni uchun kreativ pedagoglarning ahamiyati haqida ilmiy doiralarda juda ko'plab tadqiqotlar olib borilayotganligini kuzatishimiz mumkin [9]. Shu bilan birga, ularning tarbiya borasidagi ahamiyatini ham ta'kidlab o'tish lozim. Kreativ pedagog yoshlarga nafaqat bilim berish, balki ularning shaxsiy rivojlanishi va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi [13].

Zamonaviy dunyoda turli guruhlarning o'z manfaati yo'lida olib borayotgan siyosatining guvohi bo'lmoqdamiz. Ular turli chaqiriqlar va turli vajlarni o'zlariga shior qilib olib, yoshlar ongidagi bo'shliqni egallab olishga urinadi. Kelgusi avlodni yot g'oyalarni ta'siridan himoya qilish eng zaruriy choralardan bo'lib qolaveradi. Respublikada yoshlar manfaatlarini himoya qiladigan 830 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari faoliyat olib bormoqda [2]. Oilada ham ota-onalar bu masalada jiddiy ish olib boradi. Lekin, yot g'oyalarning rivojlanishi uchun ma'lum bir jamoa

bo'lishi kerak bo'ladi. Bu ta'lim muassasalari bo'lishi mumkin. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkin, ta'lim muassasalari ma'lum bir havf guruhiga kiruvchi maskan bo'ladi. Foydali va kerakli muassasaning aksincha zararli g'oyalarni tarqalishi mumkin bo'lgan joyga aylanishi eng achinarli holdir. Bunday salbiy holatlarning vujudga kelmasligi uchun pedagoglarning roli nihoyatda yuqori hisoblanadi. Bunda kreativlikning yanada muhim jihat ekanligi oydinlashadi.

O'qituvchilarning ma'naviy barkamolligi juda ko'p o'lchovli tushuncha bo'lib, u nafaqat bilim, kompetensiya va kasbiy mahoratini, balki shaxsiy etika, madaniyat va jamiyatdagi faol ishtiroki orqali shakllanadi. Bu ma'naviy barkamollik nafaqat yoshlarga bilim berish jarayonida muhim, balki ularning shaxsiy tarbiyasiga va kelajakda barkamol avlodni tarbiyalashga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, Yangi O'zbekiston sharoitida bo'lajak pedagoglar oldiga qo'yilayotgan talablar faqatgina bilim berishni o'rgatish bilan cheklanib qolmaydi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyati, ma'naviy etikasi ham talab qilinadi.

Umuman olganda, so'nggi yillarda g'arbdan kelib qolgan feminizm, egoizm, gey-madaniyati, bozor madaniyati o'zining salbiy taraflarini allaqachon namoyon qildi. Bu noan'anaviy qarashlar va yot madaniyatlarning jamiyat hayotiga kirib kelishi yoshlar ongi va dunyoqarashida yomon asoratlar qoldirmoqda. Agar bunday tahdidlarga qarshi kurashilmasa, u kelgusida jamiyatda parokandalikni, yangilik va eskilik kurashi bahonasida yangi ixtiloflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Insoniyat tarixi XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida yangi, murakkab jarayonlar bilan boyidi, bu davr globallashtirish oqibatida davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning misli ko'rilmagan darajada mustahkamlashgani bilan ajralib turadi. Axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi va fan-texnika sohasidagi inqilobiy yangiliklar global aloqalarni tezlashtirib, dunyo miqyosida integratsiya jarayonlariga turtki bo'ldi. Biroq, global taraqqiyotning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, mafkuraviy va madaniy ta'sirlar kuchayib, turli xil g'arazli kuchlar inson ongi va qalbini nazorat qilishga harakat qilayotganligi bilan bog'liq yangi tahdidlar yuzaga keldi. Xususan, axborot makonidagi asossiz ma'lumotlar, dezinformatsiya va turli oqimlarning tarqatgan mafkuraviy urushlari jamiyatlarning ma'naviy barqarorligiga xavf tug'dirib, milliy qadriyatlarni yemirishga qaratilgan jiddiy xatarlar paydo bo'lmoqda.

"Tahdid" tushunchasi ostida inson hayotiy faoliyati va umuman yashash sharoitlarini murakkablashtiradigan, shuningdek, muayyan tarixiy davrda belgilangan maqsadlarga yo'naltirilgan ijtimoiy strukturalar, ayniqsa davlatning siyosiy poydevorini zaiflashtirish va buzishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va global miqyosdagi salbiy omillarning paydo bo'lishi va ularning ta'sirida yuzaga keladigan noqulay siyosiy, ijtimoiy va tarixiy vaziyatni anglash kerak [10].

Faylasuf P.I. Chijikning ta'kidlashicha, ma'naviy tahdid – bu jamiyatda buzg'unchi xususiyatga ega bo'lgan ichki va tashqi jarayonlar, hodisalar va shart-sharoitlar majmuasidir. Bunday tahdidlar jamiyatning ma'naviy asoslariga hamda uning a'zolariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni ijtimoiy hayotdagi o'zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish uchun qo'shimcha resurslar, vaqt va mehnat sarflashga majbur etadi. Bu jarayonlarda fuqarolarning ma'naviy barqarorligi sinovdan o'tadi va jamiyatning umumiy ma'naviy qiyofasiga ham tahdid soladi [12].

Kreativlik va ma'naviyat, bir qarashda, bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar bo'lib ko'rinishi mumkin. Biroq ular o'zaro chuqur aloqada va bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Kreativ pedagog bolalarda axloqiy va

ma'naviy me'yorlarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanib, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Masalan, bolalarga ijtimoiy va ma'naviy masalalar bo'yicha loyihalar berish orqali ularda jamiyatga munosabatni shakllantirish mumkin. Shunday qilib, kreativ pedagog ma'naviy tarbiya jarayonida o'z innovatsion va ijodiy yondashuvlarini qo'llab, bolalarda ijtimoiy qadriyatlarga bo'lgan hurmatni va axloqiy tushunchalarni mustahkamlaydi.

Kreativ pedagogning vazifasi nafaqat o'quvchilarga o'quv materiallarini yetkazish, balki ularning ma'naviy rivojlanishiga yordam berishdan iborat. Pedagog kreativlik orqali o'quvchilarda axloqiy tushunchalarni shakllantirishda yangi usullar va yondashuvlardan foydalanishi mumkin. Masalan, mulohazali topshiriqlar, ijodiy loyihalar yoki axloqiy tanlovlar orqali o'quvchilarda mas'uliyat, insof, bag'rikenglik kabi muhim qadriyatlarni tarbiyalash mumkin.

Kreativ pedagog bolalarning o'z dunyoqarashlarini boyitishga yordam beradi, ularga mustaqil fikrlash va ma'naviy qadriyatlarini anglash imkoniyatini yaratadi. Bunda pedagog o'quvchilarga faqat ta'lim berish bilan cheklanmasdan, ularni fuqarolik, vatanparvarlik va jamoatchilik qadriyatlariga ham yetaklaydi.

Pedagoglar faoliyatida innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Kreativ pedagoglar turli xil yangi texnologiyalardan foydalanib, o'quv jarayonini samarali tashkil etadi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar orqali ta'limni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlari mavjud. Masalan, interaktiv doskalar, elektron kitoblar va ta'lim platformalari orqali o'quv jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok ettirish mumkin. Masalan, Sternbergning kreativlik nazariyasiga [3] ko'ra, kreativlikni rivojlantirishning bir necha yo'llari mavjud: tahlil qilish, sintez qilish va ijod qilish. Pedagoglar bu usullarni ta'lim jarayoniga qo'llab, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydilar.

Yangi O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va islohotlar asosida bo'lajak pedagoglar oldiga qo'yilayotgan talablar faqatgina bilim berishni o'rgatish bilan cheklanmaydi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatini ham qamrab oladi. Bunda pedagoglar o'z faoliyatlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib ishlashlari, yoshlarni sog'lom ijtimoiy ongga ega shaxslar sifatida tarbiyalashlari zarur.

Bugungi kunda fuqarolarimiz ongi va tafakkurida "ma'naviyat", "ma'naviy tahdid", "ma'naviy tahdidning oldini olish mexanizmlari", "ma'naviy yuksalish" tushunchalari, uning ma'no-mazmuni, zaruriyati to'g'risida aniq asoslangan tasavvurlar, ilmiy qarashlar shakllanmoqda. Bu masalalar inson va uning kelgusi taraqqiyotini qamrab oladi. Ma'naviyatni tushunish uchun avvalo, insonni tushunish talab etiladi. Insonni ma'naviy yuksalishi taraqqiyotning muhim bir shartidir. Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi [1]. Inson o'zgarishi jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarning sarchashmasidir. Inson ma'naviy yuksalishiga erishganda, jamiyatda insonparvarlik, mutolaa qilishga, ijodkorlikka bo'lgan intilish, mas'uliyat va o'zaro hurmat kabi qadriyatlar mustahkamlanadi.

Xulosa. Kreativ pedagog ta'lim va tarbiya jarayonining samarali tashkil etuvchi muhim bo'g'ini sifatida pedagogikada alohida ahamiyatga ega. Kreativlik o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ta'lim va tarbiya uzviylikiga erishishda kreativlik muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

Tavsiya qilinadigan usullardan biri – kreativ pedagoglarni tayyorlash tizimini rivojlantirish va ularga innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Shu bilan birga, pedagoglar o'rtasida ijodiy yondashuvlarni qo'llash madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 3 tom. – T.: O'zbekiston, 2019. – B.39. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 3 tom. – T.: O'zbekiston, 2019.
2. <https://lex.uz/docs/5234746> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.01.2021 й., 09/21/23/0056-сон.
3. Sternberg R. J. The theory of successful intelligence //Review of General psychology. – 1999. – T. 3. – № 4. – С. 292-316.
4. Аббосхўжаев. О., Умарова Н., Кўчқоров Р. Мафкура полигонларидаги олишув.–Т.: Академия, 2007.
5. Ахмедова З. А. О формировании креативной компетенции педагога //Современное педагогическое образование. – 2019. – №. 10. – С. 4-6.
6. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашиш маънавий-маърифий асосдир (тузувчилар: муаллифлар жамоаси). – Т.: Тошкент Ислон университети, 2005.
7. Ксенофонов В. А., Нижнева-Ксенофонтова Н. Л. Реализация креативного подхода в профессиональной педагогической деятельности. – 2014.;
8. Милованов К.Ю. Проблемные аспекты развития профессиональной карьеры педагога новейшего времени в контексте креативного образования //Ценности и смыслы. – 2014. – №. 3 (31). – С. 71-76.;
9. Морозов А.В. Педагог будущего-креативный педагог //Педагогические параллели: материалы V Междунар. науч.-. – 2018. – С. 445.;
10. Пахрутдинов Ш. "Тахдид" тушунчаси: назария ва амалиёт. Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998. – Б. 7-8.
11. Тўраев Ш. Маънавий тахдид (ёндашувлар ва тахлиллар) // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2010.– № 2.
12. Чижик П.И. Духовная безопасность российского общества, как фактор военной безопасности государства: Автореф. дис. докт. философских наук. – М., ВУ., 2000. – С.18.
13. Эрназарова Г.О., Якубова М.Ю. Талабаларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари// Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача, сборник тезисов Международной конференции, Самарканд, 2021 г. 198-199 стр.